



## ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

### ВЕСТНИК НУУз АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ  
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ  
1997  
ЙИЛДАН  
ЧИҚА  
БОШЛАГАН**

**2022  
1/3**

**Ижтимоий-  
гуманитар  
фанлар  
туркуми**

Бош муҳаррир:

**И.У.МАЖИДОВ** – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

**Р.Х.ШИРИНОВА** – ф.ф.д., профессор

Таҳрир ҳайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Нишоновна О.Ж. – ф.ф.д., проф.

Абдуллаева Н.Б. – ф.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Эргашев И. – ф.ф.д., проф.

Ахмедов Х.А. – с.ф.д.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Рахмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддикова И.А. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

**ТОШКЕНТ – 2022**

## МУНДARIЖА

### Тарих

Атамуратова Д. 1941-1945 йиллар Хоразм матбуотида сиёсий ҳамда ҳарбий-сиёсий масалалар: аҳамияти ва таҳлили.....	4
Габриелян С. Соперничество шахиншахского и учетно-судного банков в Персии в 1912-1914 годы.....	8
Исматова Н. Мустақилликнинг дастлаб йилларида Ўзбекистонда халқ таълими тизимидаги ислохотларнинг ҳуқуқий асослари.....	12
Мамажонова Н. Мустақиллик йиллари нотариат соҳасини тубдан ислох қилиниши ва жамиятда нотариат соҳасининг тутган ўрни.....	16
Муҳамедов Я. Чоч, Фарбий турк хоқонлигининг маъмурий маркази сифатида.....	20
Radjabova N. V.V.Krestovskiy va D.N.Logofetlarning kitoblarida Buxorodagi musiqa va raqs san'ati haqida ma'lumotlar.....	24
Савгирова Д. Ўлчов бирликлари тарихи: анъанавий метрология.....	27
Сиддиков Р. Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро ҳамкорликни йўлга қўйилиши ва ривожланиши.....	31
Тошбоев Ф., Тугалов Б. Қадимги Уструшона аҳолисининг марҳумни “поклаш” билан боғлиқ дафн маросимлари.....	35
Усмонов Ф. XX аср 20-30 йилларида Тошкентда болалар қаровсизлиги масаласи (архив материаллари асосида).....	39
Худойкулов У. XX аср 50-80-йиллари Ўзбекистонда кишлоқ хўжалигини ривожлантиришда трактор мутахассис кадрларни тайёрлаш.....	43
Ҳайдаров Ғ. Хорижий инвестицияларни жалб этишдаги муаммолар ва ечимлар (Фарғона vodiysi вилоятлари мисолида, 1991-2010 йиллар).....	47
Ҳамраев С. Бухоро амирлиги ва Россия империяси ўртасидаги элчилик алоқаларини ўрганишда маҳаллий манбаларнинг ўрни.....	51
Шодиева Ш. Бухорода герман-турк жосуслик фаолияти.....	55
<b>Фалсафа, Педагогика, Психология, Methodika, Социология, Сўёсий фанлар</b>	
Агзамтоджаева Ш. Исторические источники о философском мировоззрении Навои.....	58
Алыгезалов А. Узбекско-Азербайджанское взаимодействие в рамках организации тюркских государств.....	61
Аудагов Е. Ekologik madaniyat, ta'lim-tarbiya berishning nazariy-uslubiy asoslari haqida aytim mulohazalar.....	65
Аллавазарова И., Абдраштова И. Анализ перспектив, проблем и путей их решения в методике преподавания биологии в школе.....	69
Асқилбеков Н. Талаба шахсини касбга ўргатишнинг илмий-назарий асослари.....	72
Аскарлова З. Ўзбекистон тасвирий санъатида иккундор аёллар.....	75
Ахмеджонов О. Elektron madaniyatda shaxs va sun'iy ongni tutgan o'rni borasidagi fikrlar.....	79
Ахмедов Ж. Ўзбекистонда миллий културчилик анъаналари (Риштон културчилик мактаби мисолида).....	83
Axmedova M., Xuseynova N. Ona tili o'qitish metodikasi ta'limi asosida talabalarni nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda mustaqil ish, sinov-test topshiriqlaridan foydalanish.....	86
Гавчерёнок И., Жабборов Н., Селинна М. Преподавание на английском языке в высшей школе как эффективный механизм интеллектуальной мобильности.....	91
Guliyeva E. Theoretical fundamentals on productive speech peculiarities.....	95
Kalandarova S. The formation of learners competence based on Business English.....	99
Кенжаев Ш. Совершенствование системы подготовки будущих учителей к нравственному воспитанию учащихся.....	103
Qudratov S. Innovative approaches and advanced in the development of professional competence of teachers.....	106
Маджидова Р., Муҳитдинова Х. Роль лингвострановедческих мультимедийных средств в преподавании узбекского языка как иностранного.....	109
Мамадалиев Б. Электрон таълим муҳитида “Электр юритма асослари” фанини ўқитиш мазмуни ва муаммолари.....	112
Мирзахмедов А., Паршев И. Талаба – ёшларнинг компьютер тобелиги профилактикасига доир мулоҳазалар.....	115
Мўминов Х. Масофавий таълим орқали имконияти текланган талабаларнинг амалий машғулотларини ўтказиш жараёнининг шарт-шароитлари.....	118
Nasriddinov D. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida robotlashgan laboratoriya qurilmalarining o'ziga xosligi va ulardan foydalanish.....	121
Nafasov M. Onlayn ta'lim va unda mobil ilovalarning roli.....	124
Nematov L. Texnika oliy ta'lim muassasalarida “Elektrotexnika va elektronika” fanini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.....	128
Отакулов Ш. Гендер тенгликка амал қилиш сиёсатининг асосий тенденциялари.....	131
Pardaboyev O'. Kredit-modul tizimini talim jarayoniga qo'llashning o'ziga xosligi.....	135
Ражабов Х. Глобал ахборотлашув ва ахборот сиёсатиға янгича қарашлар талқини.....	138
Rahmanova M., Meyliyeva M. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini tarbiyalashning ilmiy pedagogik asoslari.....	141
Rahmanqulov F. Talabalarda web-dizayn kompetentlikni rivojlantirishning metodik ta'minoti.....	145
Сағатова Ш. Психологияда болалар церебрал фалажи муаммосининг ўрганилиши таҳлили.....	149





UDK:378

*Maloxat AXMEDOVA,*  
TTA dotsenti, p.f.n.  
E-mail: maloxatahmedova@mail.ru  
*Nargiza XUSENOVA,*  
TDO'TAU magistranti  
E-mail: nargizaxusenova@mail.ru

p.f.f.d(PhD) G'. Otamurodov taqrizi asosida

**ONA TILI O'QITISH METODIKASI TA'LIMI ASOSIDA TALABALARNI NUTQIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL ISH, SINOV-TEST TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH**

Annotation

Mazkur maqolada ona tili metodikasi fanidan nutqiy ko'nikmalarni o'stirishda test-sinovlari, topshiriqlar va ta'limiy o'yinlarning samarasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: Nutq, tafakkur, ravon, talaffuz, malaka, yozma nutq, og'zaki nutq, matn, topshiriq

**INDEPENDENT WORK, USE OF TEST ASSIGNMENTS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEAKING SKILLS ON THE BASIS OF TEACHING METHODS OF MOTHER TONGUE**

Annotation

This article discusses the effectiveness of tests, assignments and educational games in the development of speaking skills in the field of mother tongue methodology.

Keywords: Speech, thinking, fluency, pronunciation, skill, written speech, oral speech, text, assignment

**САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕСТОВЫХ ЗАДАНИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ**

Annotation

В данной статье рассматривается эффективность тестов, заданий и развивающих игр в развитии навыков говорения в области методики родного языка.

Ключевые слова: Речь, мышление, беглость, произношение, навык, письменная речь, устная речь, текст, задание

**Kirish.** Ona tili o'qitish metodikasi ta'limi talabalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ona tili metodikasi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi [1]. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Talaba uchun esa nutq OTMda mavaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish o'zi nima? Agar talaba va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tili har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, bu nutqiy kompetentsiya bo'lib, talabalarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi.

Chunki u talabalardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rinda to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, ischil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinali qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish talabidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega [3]. Talaba yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Ona tili o'qitish metodikasi dars mashg'ulotlarida o'qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko'pincha talabalar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar.

Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati (Literature review). Matnlarda ko'pincha mavzuga aloqasi bo'lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili o'qitish metodikasi dars mashg'ulotlarida talabalar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo'lishi, materialning to'g'ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to'g'ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili dars mashg'ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, talaba yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o'z nutqini takomillashtirib



borishga ilhomlantiradi. Talabalar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, demak, ona tili mashg'ulotlari samarali o'tgan bo'ladi. Ona tili mashg'ulotlarida talabalar nutqning rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri talabalarning uyda, ko'chada yoki guruhdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg'iz yoki boshqa (sheva) tilda so'zlashib, OTMda o'zbek tilida o'qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida jada ko'p tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko'pchiligi uyda tojik, qirg'iz va hokazo tilda so'zlashib, OTMda o'zbek tilida o'qishdi. Bu hol, shubhasiz, talabalarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z fikrini sokin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab o'tilgan salbiy omillardan tashqari ona tili o'qitish metodikasidan guruhdan va OTMdan tashqari olib boriladigan ishlarining mundarija va mazmun jihatidan bo'shaligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmastlik, dars mashg'ulotlarida talaba nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi. Tilti amalda o'zlashtirish ona tilining barcha tovush birliklarini (tovush – bo'g'in – ibora – matn) tinglab ajratib olish va ularni to'g'ri talaffuz qilishni nazarda tutadi, shuning uchun talabalarda boshlang'ich bilimning yetarli bilimga ega bo'lishi tovushni talaffuz qilishni rivojlantirish borasidagi filologik-metodik ishlar mustazam ravishda olib borilishi lozim. Ohang, tembr, pauza, urg'ulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi [3]. Talabaga intonatsiyadan to'g'ri foydalanishni, bildirilayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini, balki emotional xususiyatlarini ham bergan holda, uning intonatsion tavrini qurishni o'rgatish juda muhim. Shu bilan parallel ravishda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, talaffuz tempi, past-balandligini to'g'ri qo'llash, tovushlar, so'zlar, iboralar, gaplarni aniq talaffuz qilish (diksiya) qobiliyatini shakllantirish ishlari ham olib borilishi lozim. Talabalarda nutqning intonatsion jihatiga diqqat-e'tibor qaratishni tarbiyalar ekan, tajribaga ega tilsunos pedagoglarning nutqni tinglash qobiliyatini, tembr (har bir tovushning o'ziga xos bo'lgan sifati) va vazni his qilish, tovush kuchini sezishni rivojlantiradi, bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatadi [11].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).** Nutq intonatsiyasi, tovushning ifodaliligi ustidagi ishlar talabalarning bildirilayotgan fikrga nisbatan, matndan kelib chiqqan holda, ovozini balandlatib yoki pasaytirib, talaffuz qilinayotgan matnga mantiqiy va emotional urg'u berish orqali o'z munosabatini bildirishni o'rganishlari uchun zarur. Shuning uchun tilsunos pedagog tegishli topshiriqlardan ko'proq foydalanishi lozim. Aynan ushbu qobiliyatlar talabaga turlicha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish – hikoya qilish, tasvirlash, mulohaza yuritish uchun zarur bo'ladi. Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, talabaga fikrlarning predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o'rgatishi lozim [13]. Nutqning o'rinli bo'lishi, tezligi esa strofdagi muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to'g'ri nutqning muhim ko'rsatkichi uning ravonligi hisoblanadi. Artikulyatsion va intonatsion qobiliyatlarning urviy bog'liqligi keng ma'nodagi tinglash va artikulyatsion-talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ish jarayonida o'qituvchi talabalarga so'zning tovush tarkibini, so'zdagi urg'u o'rnini tinglab, aniqlay olishga, qofiya va vazni his qilish tuyg'usini rivojlantirishga, aniq talaffuzni, so'zlar, iboralar, gaplarning turli intonatsion tavrilarini bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanishi zarur. Bu murakkab

nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish fonetik mashqlarni takrorlashni, ularni mustazam ravishda o'tkazishni talab qiladi. Har bir nutqiy vazifa ustidagi ishlarining ustavor yo'nalishlarini ajratar ekanmiz, ularning barchasi o'zaro bog'liqlikda va yaqin o'zaro hamkorlikda ishtirok etishini ta'kidlash lozim. Ravon nutqni o'stirish va rivojlantirish asosida turli aloqa vositalaridan (so'zlar, gaplar, matn qismlari o'rtasida) foydalanish, turli toifadagi matmlar – tasvirlash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatini o'rgatish yotadi.

Lug'atni rivojlantirishda so'zning mazmunni ustidagi ishlar dastlabki o'ringa chiqadi, chunki aynan so'zlarni matnga muvofiq holda semantik tanlab olish (ko'p ma'noli so'zlar mazmunini ochib berish, sinonimik va antonimik taqqoslashlar) til va nutq hodisalarini anglab yetishni shakllantiradi [4].

Nutqning grammatik turumini o'zlashtirish ustidagi ishlar jarayonida nutqning turli qismlarida so'z hosil qilish usullarini o'rganish, til umumlashmalarini shakllantirish, shuningdek, sintaktik tuzilmalar qurish (oddiy va qo'shma gaplar) vazifalari bosh vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda intonatsion ifodalilik, temp, talaffuz va fikrni bayon qilishning ravonligi ustida ishlashga ko'proq ahamiyat berish darkor, zero, ravon nutqning shakllanishi ushbu ko'nikmalarga asoslanadi [11].

Tilsunos metodik pedagog talabalarga gaplarni parallel ravishda bog'lashni o'rgatishi zarur, bunda gaplar bir-biriga ulanmaydi, balki taqqoslanadi yoki hatto qarama-qarshi qo'yiladi (Kuchli shamol esardi. Quyvon imiga yashirilib oldi). Talabalarga ravon matmlar tuzishni o'rgatishda ularni mavzuni va aytilgan so'zning asosiy fikrini ochib berish, matnga sarlavha qo'yish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ravon fikrni tashkil etishda intonatsiya katta rol o'ynaydi, shuning uchun ayrim gaplar intonatsiyasidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, umuman, matnning tarkibiy birligi va mazmunan tugallanganligini qayd etishga yordam beradi. O'qituvchi bilan talabaning birgalikdagi so'z ijodkorligi monologik nutqni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. O'qituvchi metodist yo'naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollarni berish, interfeol o'yinlar orqali vaziyatlarini yaratish, talaba tashabbusini qo'llab-quvvatlashi darkor [14]. O'qituvchining so'zining hikoya mazmunini, rejasini, voqealarning ehtimoliy rivojini, so'z shaklini aytib qo'yishi birgalikdagi so'z ijodkorligida muhim ahamiyatga egadir. Axborotni uzatish yoki uni bayon qilish usullariga ko'ra fikr bildirishning quyidagi turlarini ajratish mumkin: tasvirlash, bayon qilish, mulohaza, fikrlarda kommunikatsiyalangan (uzalash) ko'rinishda uchrashi mumkin, ya'ni ularni tasvirlash (mulohaza) usullari bayon qilishga qo'shib ketadi (va aksincha). Har xil turdagi matmlar tuzishni, o'qitishni, ishlarining sabbat, o'zining va boga'larining matnini tahlil (baholash) qilish, reja tuzish va u bo'yicha hikoya qilish, matn sxemasidan (modelidan), turli xil mashqlardan foydalanish kabi shakllarda amalga oshirish tavsiya etiladi. Talaba nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat filologik ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkoniyatlar to'raligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. Talaba nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. Bizga ma'nunki, talabalar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan, qiziqarli usullardan foydalanish lozim.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz. "Zanjir" - o'qituvchi yozuv textasiga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafisa, sost, yong'ir, kitob kabi. Talaba mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida gap tuzadilar. "Integratsion

metod" talabalarga rasmiy kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, talaba rasmdagi tanish qahramonlar obrazi haqida gapirib beradi. Masalan: "Bu Chobiqushi asaridagi Faridiyning rasmi. Faridiy bog'da Komronni kutadi va Komron bilan bog'liq uchrashuvni tavsiflab beradi. Uni hamma juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi talaba ham o'zidagi rasmi haqida gapiradi va o'zidagi rasmi bilan birinchi talabadagi rasmi o'zaro bog'liqligini aytishi kerak. Masalan: "Bu badiiy kitob. Yozuchi Rashod Nuri Guntekinniki. Turk yozuvchisi. Talaba uni yaxshi tavsiflaydi va bog'liqlikni izohlaydi. Keyin uchinchi talaba o'zidagi A.Qodiriyning "O'tgan kumlar" badiiy asari haqida gapiradi va ikkinchi talabadagi asar bilan o'zidagi asar orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

"Umumiylikni izlash" – talabalar aytana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi talabalardan biriga to'pni o'tayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: OTM va talaba, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni turib olgan talaba so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

"Safar"- talabalarga OTMdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lni tasvirlash topshirig'i beriladi. Talaba bir necha kun davomida "obyekt"ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-s'ubor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, tevarak-atrofga e'tiborli bo'lish, Vatanni sevish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanilganda talabalarning mutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar talabalarning dars mashg'ulotlarida faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yangilashtrish va mustahkamlash, mutqi o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Jamiyatimizni ekinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi [14].

"U kimning asari? Bu qanday syujetli asar?" interfaol metod. Stol ustiga bir qancha adiblarning asarlarini nomi tarib qo'yiladi. O'qituvchi shu asarlardan birortasini ta'riflaydi, talabalar shu berilgan tavsif asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afallik tomoni shundaki, undan dars mashg'uloti davomida talabalar diqqatini jamlash, yod olish, xotira berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili daralarida yangi mavzuni

bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin talabalarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham umumiy foydalanish mumkin. Masalan: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchalarimiz ham stadionlarda o'yinaydilar. Talabalar ham uni sevib o'qiydilar.

"Sifatning tarlamishi" interfaol metod. O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. Talabalar shu belgini o'ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko'p to'g'ri javob topgan talabalar g'olib sanaladi. Bu topshiriqni o'tkazish talabalarga so'z tarkimlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yangilashtradi. Bundan tashqari ularning so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar rivojlanadi, mutqi shakllanadi. Masalan: savol: Nima oq rangda?, javob: qog'oz, daftar, usup, buhut, parda, buyimning sochlari, qor. Savol: Nima yumshoq?, Javob: Non, xamir, yovtiq, ko'rpa, paxta. Savol: Nigora nima qilyapti?, javob: Kitob o'qiyapti, kir yuvyapti, qoshiq artyapti.

"Noto'g'ri jumla"- bu topshiriq sur'atlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchi sur'atni tasvirlab berishi asosida sur'atlarga tegishli bo'lmagan jummalarni ham ishlatadi. Talabalar ziyraklik bilan shu jummalarni topishlari lozim. Talabalardan bu usul davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular sur'atni sinchkovlik bilan kuzatib turib o'qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto'g'ri jumlani topa bilish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini va dars mashg'ulotiga qiziqishini orttiradi [8].

"Mam ustida ishlash" Amir Temur va me'mor.

Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi. Mohir me'morni chaqirib, o'sha kunyoq ish boshlatmoqchi bo'libdi. Me'mor bunday binoni shoshilich qurib bo'lmagligini qancha ayta ham, Amir Temur ko'nmabdi. Noto'g'ri qolgan me'mor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini quydirib, bir kechada g'oyib bo'libdi. Yer-u ko'kni qidirib topisholmabdi. Oradan ikki yil o'tgach haligi usta yana paydo bo'libdi-da, darg'azob amirga :

- Siz istagan muddatda bu binoni qurib bitkazishim mumkin edi, ammo ming go'zal bo'lgani bilan uning usuri usoqqa bormadi. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Siz aytgan binoni qurish uchun o'ylashga fursat kerak edi. Men ikki yil ko'riamay ketgan davrimda shu haqda o'yladim. Qancha-qancha yurtlardagi qari oliylarni ko'rib keldim. Ham boqiy, ham go'zal bo'lishi rejalarini tuzdim. Men bir bino yaratmoqchimaniki, uning tepasida faqat osmon bo'ladi. Osmo'n xalqit bermasa, uni yana ham balandroq ko'tarishim mumkin bo'lardi, -deb javob qilgan ekan.

1. Javoblarning mosini toping.	
1) Boqiy	A) makonni tashkil qiluvchi
2) me'mor	B) imorat va inshootlarning ost qismi
3) madrasa	C) manga
4) poydevor	D) oliy o'quv dargohi

2) Binoni qurib bitkazishim. Ushbu so'z birkmasi qaysi kelishik qo'shimchasi orqali bog'langan va bog'lanish usulini toping
A) jo'nalish kelishigi
B) moslashuv usulida
S) tashuv kelishigi
D) bog'lanuv usulida
E) bitishuv usulida.

3. Berilgan fikrlarni mata asosida to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tegishli ustunda ko'rating va yuqoridagi tegishli doiralarni bo'yang.			
		To'g'ri (A)	Noto'g'ri(B)
1.	Mohir me'morni chaqirib, o'sha kuniyoq ish boshlatmoqchi bo'libdi.		
2.	Usta bunday binoni shoshilinch qurib bo'lmashligini ayubdi		
3.	Yer-u ko'kni qidirib topisholmabdi.		
4.	Ham boqiy, ham go'zal bo'lishi rejalarini tuzdim.		
5.	Men bir bino yaratmoqchi edim, tepasida faqat osmon bo'ldi.		

4. Matnda qaysi so'zlar imlosida xatolik uchraydi. (Avval so'zning xatosi yozilgan variantini, so'ng shu so'zning to'g'ri yozilishini ko'rating. Matnda 6 ta so'z imloviy xatolikka uchragan. Bu qo'shma so'zlar imlosiga tegishli emas.	

5. Matnda muallif berilgan fakt (dalil)ni yozing. (20-25 so'z)	

#### "MATNLI TEST-SINOV TOPSHIRIG'I"

##### SIRKALI KOKTEYL.

I. Sirkaning ajoyib davolash xususiyati ham borligini bilasizmi?

Men mana bunday kokteyl tayyorlab ko'rishingizni maslahat beraman: uy sharoitida turgan bir stakan suvga 1 oshqoshiqda sirka va bir choyqoshiqda asal qo'shib, aralashtirib, sekin-sekin iching. Sirkali kokteyl moddalar almashinuvini, qon aylanishini yaxshilaydi, oshqozon faoliyatini yaxshilaydi va kasal qo'zg'atuvchi mikroblarni o'ldiradi. Shuningdek, tushki va kechki ovqatlanish oldidan ikki oshqoshiq sirka qo'shilgan bir stakan suv ichib yuborish foydalidir. Bu sizga hech qanday parheziz o'zlashga yordam beradi, chunki suvda erigan sirka organizmdagi ortiqcha yog'larni osonlikcha eritib yuboradi va ishtahani susaytiradi.

II. Tomoqog'rig'i va yo'talni to'xtatishda ham sirkadan foydalansa bo'ladi. Bir stakan iliq suvga 3 oshqoshiq sirka va 2 oshqoshiq asal solib eriting. Bu aralashmadan kuniga 3 marta dan tomoqni chaying. Har chayganingizda suv yangitdan tayyorlangan bo'lishi kerak. Boshqacha usuli ham bor: iliq suv va sirkani teng miqdorda aralashtirib, hosil bo'lgan suyuqlikdan 10 daqiqa davomida og'iz bilan nafas oling.

III. Shahar chekkasiga chiqayotgan paytingizda suv bilan sirkani bir xil miqdorda qo'shib, hosil bo'lgan suyuqlik bilan badamingizni ochiq joylarini artib chiqing – sizga hech qanaqa hasharot yaqinlashmaydi. (Gazetadan)

Birinchi savol:	Birinchi ustunda matnda berilgan so'zlar berilgan. Ikkinchi ustundan shu so'zlarga sinonim, antonim, omonim, paronim bo'lib kela oladigan birliklarni aniqlang.
1) asal 2) foyda 3) sirka 4) davo	A) sirka B) bol C) da'vo D) suyuq E) zarar

Ikkinchi savol:	Shuningdek, tushki va kechki ovqatlanish oldidan ikki oshqoshiq sirka qo'shilgan bir stakan suv ichib yuborish foydalidir. Bu sizga hech qanday parheziz o'zlashga yordam beradi, chunki suvda erigan sirka organizmdagi ortiqcha yog'larni osonlikcha eritib yuboradi va ishtahani susaytiradi. Ushbu matnda qaysi bog'lovchi turi ishtirok etgan? (ikkita javob to'g'ri)
A) zidlov bog'lovchisi B) birlashtiruv bog'lovchisi C) bog'lovchi ishtirok etmagan D) ergashtiruvchi bog'lovchi E) ayiruv bog'lovchisi	

Uchinchi savol. Berilgan fikrlarni mata asosida to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tegishli ustunda ko'rating.

T/r	Tushunchalar	To'g'ri	Noto'g'ri
1	Sirkali kokteyl oshqozon faoliyatini yaxshilaydi.		
2	Sirka qo'shilgan bir stakan suv ozishga yordam bermaydi.		



3	Ikki oshqoshiq sirkadan qo'shilgan bir stakan sov ichish ixtirashni ochib yuboradi		
4	Tomoq og'rig'i va yo'talni davolashda ham sirkadan foydalaniladi.		
5	Sirkaning yana bir xususiyati: kasal qo'zg'atuvchi mikroblarni chaqiradi		

To'rtinchi savol: Matnda qaysi so'zlar imlosida xatolik bor? (Avval so'zning matnda xato yozilgan variantini, so'ng shu so'zning to'g'ri yozilishini ko'rsating. Matnda 5 ta imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlar berilgan)

So'zning matndagi xato yozilgan shakli	Shu so'zning imloviy to'g'ri yozilishi

Beshinchi savol: Matnda muallifi berilgan fakt (dali)ni yozing (20-25 ta so'z). "Payrovlar" o'yini metodi". Ushbu o'yin orqali talabalarning nutqiga o'z-o'zidan ibora, maqollar sekin-asta kirib boradi. Ibora, maqol kabi xalq og'zaki ijodiy namunalari nutqimiz ta'sirchanligini oshiradi. Bu o'yinni o'tkazish uchun kichik guruhga oldindan tanlangan ibora yoki maqollar dars boshida beriladi. Bu o'yinni qo'llashda o'quvchilarga shior qilib adabiyotshunos olim Ro'zmin Keldiyorovning "Ehtiyot bo'ling qalb bor" degan da'vatini qo'llash juda o'rindi bo'ladi. Masalan: 1.Ebumidan baland gapirib bo'lmaydi. 2.Tish bergan riqz ham beradi. 3.Tishga bog'ulik nima bor? 4.Tishning kovagida saqlab yurgan.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusion and recommendations). "G'oyalar metodi" bu metod ham yozma nutq savodxonlik darajasini oshirish omillaridan biridir. O'qituvchi tomonidan tayyorlab qo'yilgan so'zlar shajarasidan talabalar yangi so'zlar hosil qilishadi yoki bo'lmasa "Kapalak" usulida qo'shimchalar orqali yangi so'zlar hosil qilib, o'sha so'zning

xatosiz yozilishi ta'minlanadi. Masalan: kitob, kitobxon, kitobsevar, kitoblar, kitobda, kitobdan... talaba unumlanishgan tushunchalar orqali o'z fikrini izchil va xatosiz yozib beradi, talaffuzi va imlosida farqlanishi bor so'zlar tushuntiriladi. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda talaba o'zini shaxs deb hissin, unga bo'lgan e'tiborini tuysin. Agar o'qituvchi dars mashg'uloti davomida "Muvaffaqiyat muhitini" tashkil etib, talabada o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam bersa, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini o'rttirib bersa takomillashgan o'quv jarayoni ham o'z-o'zidan yuzaga keladi. Oshkorlik, ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi, ular keltirgan dalillarning ta'g'ligi, hamkorlikdagi bilimlar banki, o'zaro baholash va nazorat imkoniyati bilan belgilanadigan ta'limiy umloqot manbai yaratiladi. Demakki, o'qituvchining o'zi ham doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, pedagogik mahoratini uzhusiz oshirib borishi, jahon va milliy pedagogik mas'ul hamda ilm-fan yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda ta'lim jarayonini takomillastirib borishi lozim [14].

#### ADABIYOTLAR

1. Raupova L. (hammualliflikda). Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. II jild. Darslik. Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2013 yil, 309 bet.
2. Raupova L. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2020 yil, 309 bet. (hammualliflikda).
3. Raupova L. Nutq madaniyati. Darslik. - Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2019 yil, 138 bet
4. Raupova L., A.Ismailov. Yangi o'zbek imlosi. Toshkent: 2003-yil,
5. Raupova L. Hozirgi o'zbek tilida so'z birkamalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Yoshlar matbuoti" 2015 yil,
6. Raupova L. O'zbek struktural tilshunosligi asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2019-yil,
7. "O'zbek tilining imlo lug'ati", Toshkent-1995-yil, "O'qituvchi" nashriyoti.
8. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. "Ona tili. 5-sinf darsligi. Toshkent-2012-yil, "Ma'naviyat" nashriyoti.
9. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. "Ona tili", 6-sinf darsligi. Toshkent-2013-yil. "Tasvir" nashriyoti.
10. "Talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim". Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari, 1-modul, Toshkent-2013-yil.
11. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.:O'qituvchi, 1980.66-bet
12. Karimova V.M., Sunnatova R.L., Tojiboyeva R.N. Mastaqil fikrlash. -T.:Sharq, 2000. 110-bet
13. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O'qituvchi, 1995. 78-bet
14. Axmedova M. E.(hammualliflikda) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.:2019 yil 280 b.